# "BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH"

***Milinorov Xusniddin Xushmatovich***

husniddin2018@mail.ru

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi assistent o'qituvchisi*

***Mustafoqulova Madina Shomurod qizi***

*Shahrisabiz davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi 1-22-guruh talabasi*

***ANNOTATSIYA.*** *Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosiy poydevori, o'quvchilarning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlovchi muhim bosqich hisoblanadi.Zamonaviy boshlanĝich sinf òquvchilarining ta'lim samaradorligini oshirish, ijodiy tasavvur rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish va shu orqali xalqaro baholash ( PISA, TIMMS, PIRLS va boshqalar) dasturlarida ishtirok etishlarida ilĝor tajribalardan foydalanmoq kerakligi haqida ushbu maqolada tahlil qilinadi.*

***ABSTRACT.*** *Primary education is the main foundation of general secondary education, an important stage that ensures the development of students as new perfect human beings. thereby analyzing the need to use best practices in their participation in implementation programs (PISA, TIMMS, PIRLS, etc.) in this article.*

***Kalit sòzlar:*** *boshlanĝich, ta'lim, umumiy, tajriba, sinf, tarbiya, òquvchi, tasavvur, rivojlanish, òqituvchi, ilĝor.*

***Key words:*** *beginner, education, general, experience, class, upbringing, student, imagination, development, teacher, advanced.*

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rivojlanayotgan davlatlar va kelajagimiz poydevorini qo‘yishda boshlanĝich ta’lim muhim o‘rin tutadi. Yurtimizda ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat ega. Boshlang`ich maktab yoshidagi o`quvchilarning ta`lim faoliyatini yaxshilashning eng samarali shakli – bu o`qituvchining bilimliligi va mahoratida. Shu sababli avvalo ta`lim sifatini yaxshilashning yo`li birinchi navbatda kasbini sevuvchi hamda mahoratli o`qituvchi tayyorlash. O`qituvchi mahoratli bo`lsa , albatta o`quvchilar bilimli va har tomonlama yetuk bo`ladi. Buning uchun avvalo o`qituvchining o`zi har tomomlama barkamol bo`lishi talab etiladi. "Inson, o'zi va ruhiyati orasidagi hamda o'zi va boshqa birov orasidagi mavjud narsani tadqiq etishda bor imkoniyatni ishlatib muntazam ravishda mashq qildirib turish kerak. Buni u haqiqat vositalarini egallashda sabot bilan yo o'qitish va murabbiylik usullari yoki bahs va himoya usullari bilan amalga oshirilishi zarur" deb yozadi, Abu Nasr Farobiyning ,, Fozil odamlar shahri" kitobida . Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashda eng muhim nazariy va amaliy bilimlarni bershimiz kerak.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega.Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tadbiq eta oladilar. Òzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 29 –aprelda ,,O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Tizimini 2030–yilgacha Rivojlantirish Konsepsiyasida" 5712-sonli qarori qabul qilindi. Unda quyidagi masalalar haqida sòz boradi:

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish

Bolalarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish imkoni yaratilgan maktabdan tashqari ta’lim muassasalari (“Barkamol avlod” markazlari) faoliyati yo‘lga qo‘yish

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish.

PISA xalqaro baholash dasturi har 4 yilda bir marts  tashkil qilinadi. Boshlanĝich sinf òquvchilarining bilim darajasini baholash dasturi hisoblanadi. Hozirda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning tashabuslari bilan ijod maktablari, prezdent maktablari, allomalarning nomlari bilan atalgan maktablar, temurbeklar kabi ta'lim muassasalarining tashkil qilinishi ham bugungi kunda ta'limning ancha rivojlanganiga misol bòla oldadi.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev " Yangi O`zbekiston strategiyasi" kitobida shunday so`zlarni ta`kidlab o`tgan " Jonajon Vatanimiz – O`zbekistonni eng rivojlangan davlatlar, qatoriga olib chiqish sharafli va ayni paytda nihoyatda mas`uliyatli vazifa" . Bu gaplar bejizga emas, ta'lim va sport orqali O'zbekiston bayroĝini dunyoga tanitmoĝimiz kerak. Shu yil yangi o'quv yilidan boshlab 1–sinf òquvchilari uchun informatika va axborot texnologiyalari fani joriy etildi. Bu Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023/2024 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'ida nazarda tutilgan. Boshlanĝich sinflar uchun yangi ta'lim metodlaridan foydalanmoq lozim , shuningdek,  ta'lim bilan birgalikda tarbiyani birga olib bormoq kerak.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish ta'lim inspeksiyasi tashkil etildi . O'tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yurtimiz ta'lim sifatini baholash ishlarini joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar belgilab olindi.

Chet el ta'limi ilg'or jihatlarini o'zashtirish, yangi- yangi o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan Òzbekiston ta'limini jahondagi eng yuqori darajaga chiqarish.

Boshlang'ich ta'lim sinflari uchun o'quv rejasi va dasturlari mavjud. Boshlanĝich sinflar matematika darsida arfimetik amallar òrgatiladi hozirgi kunda ba'zi maktablarida mental arfimetikdan ham qòshincha darslar tashkilashtirilgan bòlib shu  orqali òquvchilarni fikrlash qobiliyatini shakllantirish mumkun.

**XULOSA**

Yakuniy xulosa sifatida shuni aytishim mumkunki, Yoshlikda olingan bilim tushgan òyilgan naqsh deb bekorga aytishmaydi biz ularga yoshligidan bilim berar ekanmiz ular albatta yurtimiz bayroĝini dunyoga mashhur qiladilar. Bunda biz pedagoglardan qilinadigan muhim vazifa boshlanĝich sinfga qadam qòygan òquvchilarga tòĝri yòl kòrsatib ilĝor tajribalar asosida ularni rivojlantirshimiz kerak. XXI asr axborot texnologiyalari asri deb nomlanishi ham shundan darak beradiki zamonaviy ilĝor texnologiyalardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish lozim.

**REFERENCES**

1. Òzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 29 –aprelda ,,O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Tizimini 2030–yilgacha Rivojlantirish Konsepsiyasida" 5712-sonli qarori.

2. Shavkat Mirziyoyev “ Yangi O`zbekiston strategiyasi” kitobi.

3. Сохибов, Акрам Рустамович. "Формирование организаторских способностей молодёжи Республики Узбекистан." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 9 (2016): 71-73.

4. HUJANIYOZEV, B. "ORGANIZATION OF THE FORMATION OF HISTORICAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN IN AN EDUCATIONAL ORGANIZATION." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 292-295.

5. Sokhibov, A. R. "Mechanisms to improve the quality of education in the primary school of non-state educational institutions." (2022).

6. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini

rivojlantirish metodikasi." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 296-304.

7. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo ‘lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 305-312.

8. Rustamovich, Sohibov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." Academicia Globe 2.6 (2021): 391-394.

9. Sokhibov, A. R. "SPIRITUAL AND MORAL TREASURES OF THE GREAT THINKERS OF THE EAST." Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 1 (2020).

10. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Vol. 3. No. 5. 2024.